

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

MIRZAYEV
RAHMATULLA IBODULLAYEVICH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM TIZIMIDA
KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING
KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi

Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus – 2025 yil

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Content of the doctoral (DSc) dissertation abstract

Mirzayev Rahmatulla Ibadullayevich

О‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari5

Мирзаев Рахматулла Ибадуллаевич

Конституционно-правовые основы противодействия коррупции в образовательной системе Республики Узбекистан.....25

Mirzayev Rakhmatulla Ibadullayevich

Constitutional and legal framework for combating corruption in the education system of the Republic of Uzbekistan48

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works53

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

MIRZAYEV
RAHMATULLA IBODULLAYEVICH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM TIZIMIDA
KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING
KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi

Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus – 2025 yil

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.DSc/Yu179 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.karsu.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portaliga (www.ziyo.net.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Tursunov Axtam Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ro‘zmetov Xayrillo Ibodullayevich
yuridik fanlar doktori, professor

G‘afurov Asqar Boisovich
yuridik fanlar doktori, professor

Qodirov Bobiromon Bekmurodovich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Ozbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengashning 2025 yil 17 iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 230112, Nukus sh., Akademik Ch.Abdirov ko‘chasi, 1. Tel. (+99861) 223-60-47, faks: 223-60-78, 223-58-29; e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (325-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 230112, Nukus sh., Akademik Ch.Abdirov ko‘chasi, 1. Tel. (+99861) 223-60-47, faks: 223-60-78, 223-58-29).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 3 iyul kuni tarqatildi.
(2025 yil 3 iyldagi 1-raqamli reyestr bayonnomasi).

E.D.Kutibaeva

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy Kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

G.M.Berdimuratova

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy Kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Z.A.Reymova

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy Kengash qoshidagi Bir martalik ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (Fan doktori (Dsc) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda korrupsiyaning oldini olish va aholi o'rtasida poraxo'rlikka nisbatan murosasizlik munosabatlarini shakllantirishda ta'limning o'rni muhimligi alohida e'tirof etilgan. Aynan shuning uchun so'nggi o'n yillikda ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari xorijlik va o'zbekistonlik olimlarning e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Yer yuzida korrupsiyaning zarari har yili qariyb 3 trillion AQSh dollarini tashkil etayotganligi, jamiyat ko'rayotgan ma'naviy zarar ko'laminin beqiyos ekanligi, ayniqsa, ta'limning tanazzulga yuz tutib, shaxs, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini to'liq himoya qilolmaydigan vaziyatga tushib qolayotgani masalani yanada dolzarblashtiradi.

Jahonda ta'limni rejalashtirish xalqaro instituti (TRXI – YUNESKO) korrupsiyaga qarshi yo'naltirilgan ETICO¹ portalini yaratdi. Mazkur portalda dunyo hamjamiyati tomonidan ta'limdagi korrupsiyaviy holatlarga qarshi kurashish tajribasi umumlashtiriladi. Masalan, mazkur portalgga joylashtirilgan "Aholining kambag'al qatlamlari manfaatlarini uchun ta'limni qo'llab-quvvatlash masalalarida shaffoflikni ta'minlash" mavzusidagi tadqiqot korrupsiyaga qarshi kurashning yettita tayanch xalqaro loyihasini o'zida jamlagan. Mazkur loyihani amalga oshirish doirasida ishlab chiqilgan xalqaro me'yorlar (standartlar) korrupsiyaga qarshi kurashishning maktab axborot stendlari, shaffoflikning mahalliy va apellyatsion mexanizmlari, jamoat tekshiruvlari, yashirilayotgan ma'lumotlarni jamoat tomonidan aniqlash tajribasi va ta'limni hamma uchun ta'minlashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda uzluksiz ta'lim (maktabgacha, maktab va oliy ta'lim) tizimidagi korrupsiyaviy jinoyatlarning miqyosi va ko'lami bo'yicha vaziyat o'zgarimasdan qolayotganligi² bu borada tizimli islohotlarni amalga oshirishga asos yaratadi. Biroq O'zbekistonda ta'lim sohasida to'planib qolgan korrupsiyaviy holatlarni xorijiy davlatlarning qonun hujjatlari normalarini shunchaki o'zlashtirish bilan bartaraf etishning iloji yo'q. Bunda, eng avvalo, mamlakatda mavjud haqiqiy korrupsiyaviy holatlar va ushbu holatlarning paydo bo'lishi hamda tarqalishining sabab-oqibatlarini har tomonlama va tizimli tahlil qilish, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ta'lim sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish hamda xalqning tarixi, madaniyati, mentaliteti va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur hisoblanadi.

Prezidentimizning O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini ilg'or oliy o'quv yurtlariga aylantirish, ushbu universitetlarni dunyoning 500 ta eng yaxshi oliy ta'lim muassasalari qatoriga kiritish, ularda bilim berish darajasini oshirish va "Mamlakat oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha shijoatli qonunchilik va idoralararo sa'y-harakatlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

¹ ETICO portali: ta'limda korrupsiyaga qarshi kurashish // ЮНЕСКО расмий сайти. [Электронный ресурс]. URL: <https://ru.unesco.org/news> (мурожаат қилинган сана: 26.06.2023).

² O'zbekiston Respublikasi IIV 2023 yildagi tezkor ma'lumotlar statistikasi tahlili asosida.

Bu borada xorijda juda foydali va samarali tajriba to'plangan, bizda esa mukammal o'rganish davom etmoqda. Chunki olimlarning aksariyati, asosan, barcha davlatlar yoki ayrim mamlakatlar uchun huquqiy normalar nazarda tutilgan xalqaro konvensiya va boshqa hujjatlarni tahlil qilishga e'tibor qaratmoqda. Shu bilan birga, dunyoning ayrim rivojlangan davlatlarida O'zbekiston ham qabul qilishi maqsadga muvofiq bo'lgan konstitutsiyaviy-huquqiy va jinoiy-huquqiy normalar amal qiladi. Biroq bu mamlakatda mavjud haqiqiy korrupsion muammolar va ushbu hodisaning paydo bo'lishi hamda tarqalishining sabab-oqibatlarini har tomonlama va tizimli tahlil qilish asosida amalga oshirilishi kerak. O'zbekiston ta'lim tizimida milliy siyosatni ta'minlashda boshqa davlatlar kabi xalqaro tadqiqotlar natijalari va xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilayotgan tavsiyalar inobatga olinmoqda. Chunki "Oliy ta'limni korrupsiyadan xalos qilish hozirgi asosiy masalalardan biridir"³. Keyingi ikki yilda oliy va professional ta'lim tizimining 326 nafar xodimi korrupsiyaviy jinoyatlari uchun javobgarlikka tortilgani⁴, maktabgacha, maktab va oliy ta'limning deyarli barcha bosqichlarida korrupsiya illatlari mavjudligi, ayniqsa, talabalikka qabul qilish, ta'lim davridagi sinovlar, o'qish joyini ko'chirish bosqichlarida korrupsiyaviy holatlarning keng tarqalgani⁵ ushbu mavzuni o'rganish zaruratini tug'diradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni⁶ va ta'lim sohasidagi korrupsiyaga qarshi kurashishga doir huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustivor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁷. Xorijda ko'plab ilmiy markaz, universitet va xalqaro tashkilotlar ta'lim sohasida korrupsiya

³ "Korrupsiya oliy ta'limning barcha bosqichlarida mavjud" – Tanzila Norboyeva // Gazeta.uz. 07.08.2020. [Elektron resurs]. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2020/08/07/corruption-edu/> (murojaat qilingan sana: 06.04.2023).

⁴ Norboyeva T. Ko'rsatilgan maqola

⁵ O'sha joyda.

⁶ Ushbu qonunlarning bibliografik ma'lumotlari foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

⁷ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi: www.unistra.fr; www.nus.edu.sg; en.seoultech.ac.kr; <https://www.helsinki.fi>; www.ku.dk; www.harvard.edu; www.stanford.edu; nrc.canada.ca; www.sfo.gov.uk; www.nationalcrimeagency.gov.uk; www.transparency.org; www.izak.ru; www.msu.ru; www.сгюа.py; www.tsul.uz; www.akadmvd.uz; www.proacademy.uz; Deliversky J. Preventing corruption in the education system // Journal of educational and instructional studies in the world. – June 2016. – Vol. 6. – Special Issue 1. – 142-156 pp. Lee-Jones K. Overview of corruption and anticorruption in Central Asia // Transparency International. – 2021. [Electronic resource]. URL: <https://knowledgehub.transparency.org/assets/>

muammolarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar olib bormoqda. Xususan, ta'lim tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Université de Strasbourg (Unistra ili UDS) (Frantsiya), National University of Singapore (NUS) (Singapur), Seoul National University (SNU) (Koreya), Helsingin yliopisto (Finlandiya), Københavns Universitet (Daniya), Harvard University (AQSh), Stanford University (SU) (AQSh), National Research Council (NRC) (Kanada), Serious Fraud Office (Buyuk Britaniya), National Crime Agency – NCA (Buyuk Britaniya), Transparency International (Korrupsiyaga qarshi kurashish tadqiqotlar va tashabbuslar markazi), Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi qonunchilik va qiyosiy huquqshunoslik instituti, M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Saratov yuridik Akademiyasi (Rossiya), Toshkent davlat yuridik universiteti, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyalarida olib borilmoqda.

Ularda amalga oshirilgan korrupsiyaga qarshi kurashishni takomillashtirishga oid tadqiqotlarda muayyan ilmiy natijalarga erishilgan. Jumladan, ortiqcha huquqiy tartibga solish Université de Strasbourg (Unistra ili UDS) (Frantsiya), huquqiy tartibga solishdagi bo'shliqlar National University of Singapore (NUS) (Singapur), normativ-huquqiy hujjatlarning to'qnashuvi (kolliziyasi) Københavns Universitet (Daniya), davlat xizmatlarining faoliyat sohasini korrupsiyaga qarshi himoyalash mexanizmlarini belgilashga bo'lgan yagona yondashuvni shakllantirish National Crime Agency – NCA (Buyuk Britaniya), korrupsiyaviy holatlar namoyon bo'lishiga ko'maklashuvchi shart-sharoitlar va sabablarni istisno qilishga yo'naltirilgan huquqiy hamda tashkiliy vositalar majmualarini qo'llash National Research Council (NRC) (Kanada), Serious Fraud Office (Buyuk Britaniya), O'zbekiston ta'lim tizimidagi korrupsiya muammosining baholanishi (J. Deliversky, K. Lee-Jones, D.G. Lewis, J. Quah), davlat xizmatlarining faoliyat sohasini korrupsiyaga qarshi himoyalash mexanizmlarini belgilashga bo'lgan yagona yondashuvni shakllantirish (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi qonunchilik va qiyosiy huquqshunoslik instituti), korrupsiyaga qarshi qonunchilikning to'liqligi va ziddiyatli bo'lmasligini ta'minlash maqsadida korrupsiyaga qarshi talablarni va bu talablarga amal qilish kerak bo'lgan lavozimlarni taqqoslash uchun qonunlarni yaratishga bo'lgan yagona yondashuvni belgilash (Saratov Yuridik akademiyasi) masalalari o'rganilgan.

Jahonda ta'lim tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda: a) ma'lum bir mezonlardan kelib chiqib "korrupsiya" tushunchasining ta'rifini ishlab chiqish; b) korupsiyaviy xatti-harakatlarni baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish; d) aholini korrupsiya, uning jamiyat va davlat uchun oqibatlari to'g'risida xabardor qilish mexanizmini ishlab chiqish; e) yoshlarga o'qish va ishga joylashish imkoniyatlari, ishni o'qish bilan qo'shib olib borish to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim qiladigan maslahat

markazlarini yaratish; f) fuqarolar va davlat xizmatchilari vakolatli organlarga korrupsiyaga bog‘liq holatlar yoki bu haqidagi ma’lumotlarni tekshirib ko‘rish to‘g‘risida murojaat qilganda ularni himoya ostiga olish; g) korrupsiya xavfining kamayishiga davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqligini yanada oshirish; h) davlat xizmatining martaba modelini amalda qo‘llash va boshqalar yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Korrupsiyaga qarshi kurashish muammosi xalqaro va davlatlar darajasida ko‘pdan buyon tadqiq qilib kelinmoqda. Ushbu tadqiqotni bajarish uchun rossiyalik mutaxassislarining, xususan, V.Y.Artemov, N.A.Golovanova, A.Y.Zakson, Sh.N.Gaydaenko, S.B.Ivanov, T.Y.Xabriyeva, Y.A.Chixanchin, O.L.Lobanova, M.G.Reshnyak, G.E.Slepko, Y.N.Strajevich⁸ va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlari tahlil qilindi.

Bu borada A.K.Baldinning dissertatsiyaviy tadqiqotida “Aksilkorrupsiyaviy ekspertizani o‘tkazish uslubiyati”ga korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar, D.N.Kolchemanov dissertatsiyasida xorijiy davlatlarning xizmatlar tizimlarida korrupsiyaga qarshi kurashishni ma’muriy-huquqiy tartibga solish masalalari, D.A.Povnoyning dissertatsiyaviy tadqiqotida ta’lim sohasida korrupsiyaviy ma’muriy huquqbuzarlik, R.S.Sorokinning dissertatsiyasi avtoreferatida korrupsiyaga qarshi talablarni va bu talablar tarqaladigan lavozimlarni taqqoslash uchun qonunlarni yaratishga bo‘lgan yagona yondashuvni belgilash masalalari ilmiy tadqiq etilgan⁹.

J.Deliversky, K.Lee-Jones, D.G.Lewis, J.Quah¹⁰ kabi xorijlik olimlar ilmiy qarashlaridan istifoda etilgan.

Shuningdek, tadqiqot ishida o‘zlarining ko‘plab ishlarida O‘zbekistonda korrupsiyaviy holatlarning xususiyatini o‘rgangan taniqli o‘zbek huquqshunoslari va iqtisodchilarining ishlaridan, xususan, Z.N.Abdullayeva, M.E.Abdullayeva, G.A.Alimov, B.I.Isroilov, S.A.Allanov, U.M.Aloyev, D.Anvarova, A.B.Atajanov, A.S.Begmatov, I.B.Djurayev, N.A.Zikrillayeva, S.S.Mamanov, B.I.Ismoilov, O.Ismoilov, A.L.Karapetova, S.A.Samo‘lov, T.I.Kenjayev, E.V.Kolenko, B.S.Shamsutdinov, K.I.Kurpayanidi, N.Z.Ziyodinova, I.Sh.Tolibov, Sh.R.Qobilov, J.Qozixodjayev, M.Ibragimov, M.Quronov, Sh.Akramova, Q.Qodirov, M.Ya.Muxammadiyeva, N.Nodirxonova, N.Salayev, B.Xidoyatov, G.Tulaganova, S.Niyozova, A.S.Tursunov, A.X.Muxiddinov, S.B.Xo‘jaqulov, Sh.D.Xaydarov, L.R.Qudratova, X.I.Xidirov, K.B.Hakimov¹¹ va boshqa olimlarning ishlaridan foydalanildi. Dissertatsiyada o‘zbek olimlarining (masalan, Sh.Rakhmanov, R.Urinboyev¹²) ingliz tilida nashr etilgan fikr-mulohazalariga munosabat bildirildi. Ularda xalqaro aksilkorrupsiyaviy huquqiy normalarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan, mamlakat qonunchiligi tahlil qilingan, uning holatlari boshqa davlatlarning huquqiy normalari bilan qiyoslangan, O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimida ushbu turdagi jinoyatlarning sodir qilinishi bo‘yicha dolzarb rasmiy statistik ma’lumotlar keltirilgan, korrupsiyaning keng tarqalishi sabab-oqibat

⁸ Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatiga qarang.

⁹ Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatiga qarang.

¹⁰ Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatiga qarang.

¹¹ Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatiga qarang.

¹² Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatiga qarang.

bog‘lanish asosida omillari ko‘rsatib berilgan, amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar taqdim etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universitetining 2017-2030-yillarga mo‘ljallangan ilmiy-tadqiqot rejasining 2.5. “Fuqarolik jamiyati qurishning ijtimoiy-siyosiy va madaniy muammolari” bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, takliflar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

– korrupsiyaning kelib chiqishini tavsiflash, uning mazmun-mohiyatini yoritish;

– korrupsiyaning namoyon bo‘lish shakllarini o‘rganish va tahlil qilish;

– korrupsiyani konstitutsiyaviy-huquqiy tadqiqot obyekti sifatida tavsiflash;

– xorijiy davlatlar ta‘lim tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ilg‘or tajribalarni o‘rganish va o‘zimizga xos xususiyatlarga mos jihatlarni mamlakatimizda joriy qilishni tavsiya etish;

– ta‘lim sohasiga oid korrupsiyaga qarshi kurashishning omili sifatida qonunchilikni modernizatsiya qilish masalasini tahlil qilish;

– O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid normativ-huquqiy hujjatlari tizimini tahlil qilish;

– O‘zbekistonning ta‘lim tizimida korrupsiyaning turlari va korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini aniqlash;

– korrupsiyaning niqoblangan shakli sifatida “sovg‘a”ning mohiyatini ochib berish;

– o‘quvchi yoshlar orasida korrupsiyaga qarshi kurashishning xulq-atvor va immunitetni shakllantirish masalalarini tadqiq qilish;

– ta‘lim tizimida korrupsiyaga qarshi samarali kurashishning istiqbollari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyektini ta‘lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqot predmeti qilib O‘zbekiston va xorijiy davlatlar ta‘lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslariga oid ta‘limotlar, qonunchilik va amaliyot olindi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishini tayyorlash jarayonida formal-mantiqiy, tizimli-strukturaviy, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, empirik, qonun hujjatlarini ilmiy sharhlash, statistik, huquqni qo‘llash amaliyotini tahliliy o‘rganish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yoshlarni har qanday qonun buzilishiga, ayniqsa, korrupsiya holatlariga qarshi murosasizlik ruhida tarbiyalashda ishontirish, mashq qildirish va mustaqil ishlash, kuzatish, rag‘batlantirish va shaxsiy namuna kabi usullardan foydalanish lozimligi asoslangan;

korrupsiyaning eng ommabop tasnifini tanlashda uning qat'iy belgilangan mezonlar asosida namoyon bo'lish sohalari, subyektlarning holatini, korrupsiyaning ijtimoiy xavflilik darajasini kiritish zarurligi asoslab berilgan;

o'sib kelayotgan yosh avlodni korrupsiyaga qarshi kurashishga o'rgatish, ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlariga yoshlarni faol jalb etish va fuqarolarda bolalikdan korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirish to'g'risida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarurligi dalillangan;

yosh avlodga ta'lim olish va keyinchalik ishga joylashish, shuningdek, ishdan ajralmagan holda o'qish imkoniyatlari haqida ma'lumot beruvchi maslahat markazlari tizimini tashkil etish; byudjet mablag'larini sarflashni qat'iy nazorat qilish tizimi, kafolatlangan ijtimoiy grantlar berish yo'li bilan barcha ta'lim muassasalarini davlat tomonidan moliyalashtirishni ta'minlash zarurligi asoslab berilgan;

ta'lim tizimining turli bosqichlari uchun pedagog xodimlarning axloq kodekslarini ishlab chiqish va ularni mamlakatning turli hududiy ta'lim muassasalariga joriy etish bo'yicha taklif ishlab chiqilgan;

ta'lim jarayoniga innovasion, ilg'or va xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlash talablariga rioya etilishini nazorat qiluvchi, xususan, oliy ta'lim tizimida o'quv dasturi davomida kredit-modul tizimi, zamonaviy o'qitish texnologiyalari hamda interaktiv usullarni keng joriy etish, ta'lim jarayonida akademik halollikni ta'minlash va unga qat'iy rioya etilishini muvofiqlashtiruvchi kollegial organ – akademik halollik kengashini tashkil etish zarurati asoslab berilgan;

oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish tuzilmalari mustaqil emasligi, shuning uchun oliy ta'lim tizimidagi manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va bartaraf etish mexanizmlarini joriy etishda ushbu tuzilmalarning mustaqilligini ta'minlash, ularning faoliyati samaradorligini oshirish zaruriyati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"Korrupsiya" tushunchasining mualliflik ta'rif ishlab chiqildi va ushbu ta'rifni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida mustahkamlash zarurligi ilmiy asoslandi;

dunyodagi globallashtirish, raqamlashtirish jarayonining rivojlanishi hamda korrupsiyaning virtual makonda paydo bo'lgan ko'plab shakl va turlariga asoslanib, korrupsiyaning eng ommabop tasnifi ishlab chiqildi;

O'zbekiston olimlari ta'lim tizimlaridagi korrupsiyani tadqiq qilish sohasida tizimli va majmuaviy yondashuvlar asosida (murakkab tizimlar nazariyasi va tarmoq nazariyasi) jiddiy yutuqlarga erishgan G'arb tajribasini qabul qilishlari ilmiy asoslandi;

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirliklari mutaxassislari, Singapur va Koreya Respublikasi hamda Yaponiyaning korrupsiyaga qarshi kurashda aholining huquqiy

savodxonligini oshirish bo'yicha ilg'or tajribasiga asoslanib, O'zbekistonning yangilanayotgan ta'lim tizimining barcha darajalarida korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo'yicha maxsus mahkamalar yaratish, o'sib kelayotgan avlodning huquqiy savodxonligini oshirish dasturlarini ishlab chiqish va bajarilishini ta'minlash bilan shug'ullanishi kerakligi dalillandi va b.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonun normalari va xalqaro standartlar, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti, sotsiologik tadqiqotlarning anketa va ekspert baholash shakllariga asoslangan, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar asosida rasmiylashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha oliy ta'lim muassasalarining 500 nafar professor-o'qituvchilari va 16000 nafar talabalar orasida so'rovnoma o'tkazildi.

Xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, kelgusida ilmiy-tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalardan "Jinoyat huquqi", "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi", "Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy huquqi", "O'zbekistonning milliy xavfsizligini ta'minlash muammolari", "Kriminologiya", "Viktimologiya", "Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens-nazorati" va boshqa fanlarning nazariy asoslarini rivojlantirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular kelgusida qonun ijodkorligida, muammoga doir milliy qonunchilikni sharhlashda, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirish va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslariga oid tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Yoshlarni har qanday qonun buzilishiga, ayniqsa, korrupsiya holatlariga qarshi murosasizlik ruhida tarbiyalashda ishonitirish, mashq qildirish va mustaqil ishlash, kuzatish, rag'batlantirish, o'rnak ko'rsatish va shaxsiy namuna kabi usullardan foydalanish kerakligi to'g'risidagi taklifidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14 oktyabrdagi 595-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalarining 9-bandi sakkizinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2022 yil 13 dekabrda №12/21-93-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarini ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash metodikalarini takomillashtirishga, fidoiylik va vatanparvarlik kabi tuyg'ularni yoshlar ongiga singdirib borish uchun xizmat qilgan;

Korrupsiyaning eng ommabop tasnifini tanlashda uning qat'iy belgilangan mezonlar asosida namoyon bo'lish sohalarini, subyektlarning holatini,

korrupsiyaning ijtimoiy xavflilik darajasini kiritish zarurligi bo'yicha berilgan taklifdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 27 noyabrdagi PF-200-son [Farmoniga](#) 1-ilova tarzida keltirilgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024 yillarga mo'ljallangan DAVLAT DASTURI"ning "Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashishning qonuniy asoslarini yanada takomillashtirish" – deb nomlangan 1-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligining 2024 yil 1 iyuldagi №7 sonli Dalolatnomasi). Joriy etilgan ushbu taklif O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning, xususan, ta'lim tizimida korrupsiyaga oid xavf-hatarlar yuqori bo'lgan yo'nalishlar hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, korrupsiya ko'rinishlari namoyon bo'lishiga olib keladigan tizimli muammolar va ularni bartaraf etish, korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlar ijrosini ta'minlashga xizmat qilmoqda;

O'sib kelayotgan yosh avlodga korrupsiyaga qarshi kurashishga o'rgatish, ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlariga yoshlarni faol jalb etish va fuqarolarda bolalikdan korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirish to'g'risida ta'lim beruvchi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarurligi taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 27 noyabrdagi PF-200-son [Farmoniga](#) 1-ilova tarzida keltirilgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024 yillarga mo'ljallangan DAVLAT DASTURI"ning "Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashishning qonuniy asoslarini yanada takomillashtirish" – deb nomlangan 19-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligining 2024 yil 1 iyuldagi №7 sonli Dalolatnomasi). Joriy etilgan ushbu taklif O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning, xususan, ta'lim tizimida korrupsiyaga oid xavf-hatarlar yuqori bo'lgan yo'nalishlar hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, korrupsiya ko'rinishlari namoyon bo'lishiga olib keladigan tizimli muammolar va ularni bartaraf etish, korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlar ijrosini ta'minla hamda ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda;

Yosh avlodga ta'lim olish va keyinchalik ishga joylashish, shuningdek, ishdan ajralmagan holda o'qish imkoniyatlari haqida ma'lumot beruvchi maslahat markazlari tizimini tashkil etish; byudjet mablag'larini sarflashni qat'iy nazorat qilish tizimi bilan kafolatlangan ijtimoiy grantlar berish yo'li bilan barcha ta'lim muassasalarini davlat tomonidan moliyalashtirishni ta'minlash zarurligi bo'yicha berilgan taklifdan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligining 2024 yil 19 apreldagi 03/10-1093-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklif oliy ta'lim

muassasalari talabalariga ta'lim olish va ishga joylashish imkoniyatlari kengayishiga xizmat qilmoqda;

Ta'lim tizimining turli bosqichlari uchun pedagog xodimlarning axloq kodekslarini ishlab chiqish va ularni mamlakatning turli hududiy ta'lim muassasalariga joriy etish bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 19 apreldagi 03/10-1093-sonli ma'lumotnomasi). Amaliyotga joriy etilgan mazkur Axloq kodeksi ta'lim muassasalari pedagog xodimlarning faoliyatida korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga xizmat qilmoqda;

Pedagogik jarayonga innovatsion, ilg'or va xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, o'qitish va tarbiyalash sifatini ta'minlash talablariga rioya etilishini nazorat qiluvchi, xususan, Oliy ta'lim tizimida o'quv dasturi davomida kredit-modul tizimi, zamonaviy o'qitish texnologiyalari hamda interaktiv uslublarni keng joriy etish, ta'lim jarayonida akademik halollikni ta'minlash va unga qat'iy rioya etilishini muvofiqlashtiruvchi kollegial organ, Akademik halollik kengashini tashkil etish bo'yicha taklif qabul qilinib, amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 19 apreldagi 03/10-1093-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklif bo'yicha ta'lim muassasalarida tuziladigan akademik halollik kengashi pedagogik jarayonga innovatsion, ilg'or va xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, o'qitish va tarbiyalash sifatini ta'minlashga xizmat qiladi;

Oliy ta'lim tizimida manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va bartaraf etish mexanizmlarini joriy etishda "Komplayens nazorat" tuzilmalarining mustaqilligini ta'minlash, ularning faoliyati samaradorligini oshirish zaruriyati bo'yicha berilgan taklifdan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish"-deb nomlangan 34-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan ("Yuksalish" umummilliy harakatining 2021 yil 27 oktyabrdagi №119/27-10-2021 sonli Ma'lumotnomasi). Ushbu taklif ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga, "Komplayens nazorat" tizimining mustaqilligini ta'minlash uchun xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 22 ta ilmiy maqola chop etilgan (ulardan 12 tasi xorijiy nashrlarda).

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya Kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 272 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Tadqiqotning **“Korrupsiyaning kelib chiqishi, tavsifi va uni tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari”** nomli birinchi bobida korrupsiyaning kelib chiqishi, tavsifi, mazmuni va mohiyati; namoyon bo‘lish shakllari aniqlangan; korrupsiya va unga qarshi kurashish konstitutsiyaviy-huquqiy tadqiq qilish obyekti sifatida tavsiflangan.

Muallif “korrupsiya” lotin tilidan so‘zma-so‘z tarjima qilinganda, “pora” ma‘nosini anglatishi haqida so‘z yuritib, ilmiy adabiyotlarda ushbu tushunchaning ko‘plab ta‘riflari mavjudligiga, ularning aksariyati davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari tomonidan korrupsiyaning namoyon bo‘lishini anglatishiga e‘tibor qaratgan va mazkur tushunchaga oid olimlar (A.S.Tursunov va A.X.Muhiddinov, N.Salayev, Sh.D.Haydarov va L.R.Qudratova, V.V.Luneev, P.A.Cheboksarov, A.V.Kuzmin)larning fikrlarini tahlil etgan va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga korrupsiya atamasining quyidagi ta‘rifini kiritishni taklif qilgan: “Korrupsiya – bu shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab mansab maqomini suiiste‘mol qilishdir”.

Mazkur ishda olimlarning turli tasniflarida keltirilgan korrupsiyaviy faoliyat turlari har tomonlama tahlil qilinib, mavjud tasniflar ushbu hodisaga qarshi maqsadli va samarali kurash olib borish uchun to‘liq va yetarli asos sifatida tan olish mumkin emas, degan xulosaga kelingan. Masalan, “G‘arbiy Yevropa modeli”ga korrupsiyaning past darajasi xos, chunki jamiyat korrupsiyani qonunning buzilishiga asoslangan anomaliya sifatida qabul qiladi. “Osiyo modeli” sharoitida korrupsiya jamoatchilik tomonidan yo‘l qo‘yiladigan, davlatning faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlaydigan, tarixiy an‘analarga asoslangan faoliyat hisoblanadi. “Lotin Amerikasi modeli”da davlat amalda korrupsiyaga qarshi kurashmaydi, chunki iqtisodiyotning yashirin sektori yirik sarmoyaga va davlatning kuchiga yaqin qudratga erishgan. Shu bilan birga, turg‘un siyosiy beqarorlik korrupsiyaga qarshi harakatlar shiori ostida diktatura o‘rnatish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuning uchun ushbu mintaqa “Afrika modeli”ga o‘tishga tobora yaqinlashib bormoqda. “Afrika modeli” hokimiyat asosiy iqtisodiy klanlar tomonidan sotib olinganligi yoki ularga qo‘shilib ketganligi bilan ajralib turadi¹³.

¹³ Бондаренко С.В. Коррупцированные общества. – Ростов на-Дону: ОАО «Ростиздат», 2019. – С. 40.

Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari konstitutsiyaviy huquq obyekti sifatida ikkinchi jahon urushidan keyin butun dunyoda ilmiy qiziqish uyg'otganini, G'arb davlatlari uni SSSRdan ancha oldin o'rganishni boshlaganini, MDHda korrupsiya va unga qarshi kurashish konstitutsiyaviy-huquqiy nuqtayi nazardan 1990 yillardan tadqiq etilayotganini, 2000 yillarda mavzuga doir tadqiqotlar faollashganini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida "Ayrim xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning o'ziga xos xususiyatlari tahlili"ga bag'ishlangan bo'lib, unda Koreya Respublikasi, Singapur, Yaponiya, Finlandiya, Daniya, AQSh, Kanada kabi davlatlar ta'lim tizimlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tajribasi tahlil qilingan.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligi ko'p jihatdan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, hududlarining o'lchami va huquqiy an'analar madaniyati bilan belgilanadi. Koreya Respublikasi, Singapur hamda Yaponiya korrupsiyaga qarshi kurashishda yetakchi mamlakatlardan hisoblanadi. Muallifning fikricha, ularning ta'lim tizimida korrupsiyaviy xavfni bartaraf etish amaliyotidan O'zbekiston aholini korrupsiya, uning shaxs, jamiyat va davlat uchun oqibatlarini to'g'risida xabardor qilishda foydalanishi mumkin.

Yaponiyada korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor yo'nalishlari sifatida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, davlat xizmatini isloh qilish, aholi huquq va erkinliklarini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan ijtimoiy-huquqiy nazorat va siyosatchilarga ma'naviy ta'sir ko'rsatish tizimining amal qilayotganligini hamda bu boradagi tajribalar O'zbekistonda qo'llanilsa ijobiy natijalarga olib keladi. Buning uchun O'zbekiston ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo'yicha maxsus boshqarma tuzish, ushbu boshqarma zimmasiga o'sib kelayotgan yosh avlodga aksilkorrupsiyaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish vazifasini yuklash maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Finlandiyadan ta'lim vazirligining maqbul tuzilmasi va unda ishlaydigan xodimlarning soni, mazkur soha xodimlari uchun korrupsiyaga oid huquqbuzarlik hamda jinoiy xatti-harakatlarda ishtirok etish imkonini bermaydigan axloq kodeksini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, qabul qilinadigan qarorlarning shaffofligi va ochiqligini oshirish, ushbu mavzuda jamoatchilik muhokamalarini ko'proq o'tkazish tajribasidan foydalanishi kerak. Finlandiya maktablarida o'quvchilarning ota-onalari haqida ma'lumot olinmasligi ham e'tiborga molik. Daniyaning ta'lim sohasidagi korrupsiyaga qarshi kurashish tajribasi ham diqqatga sazovor. U asosan, bolalarda davlat va xususiy sektorda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga asoslangan profilaktika choralari amalga oshirishga qaratiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Finlandiya va Daniya tajribasi tahlili O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi qonunchiligini Yevropa Kengashining Korrupsiyaga qarshi jinoiy javobgarlik to'g'risidagi Konvensiyasi va unga qo'shimcha protokollarga muvofiq takomillashtirish lozimligini ko'rsatadi. O'zbekistonda xuddi Daniyadagi kabi yoshlarga o'qish va ishga joylashish imkoniyatlari, ishni o'qish bilan qo'shib

olib borish to'g'risida ma'lumotlarni taqdim qiladigan maslahat markazlarini tuzish maqsadga muvofiqdir. Bu "tanish-bilishchilik" bo'yicha ishga joylashishga barham beradi.

AQSh va Kanada korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha xalqaro reytingda yetakchi davlatlardan hisoblanmaganligi bois ularda korrupsiya bilan bog'liq ko'pgina muammolar saqlanib turibdi. Biroq AQShda ogohlantirish instituti faol ishlamoqda va moliyaviy va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlashga katta hissa qo'shmoqda. Muallifning fikricha, O'zbekiston AQShdan fuqarolar va davlat xizmatchilari vakolatli organlarga o'zlariga ma'lum korrupsiyaga bog'liq holatlar yoki bu haqidagi ma'lumotlarni tekshirib ko'rish to'g'risida murojaat qilganda, ularni himoya ostiga olish hamda parallel ravishda barcha tashkilotlarning rahbariyatini bunday arizalar bilan murojaat qilayotgan shaxslar tomonidan oldindan o'ylangan noto'g'ri ma'lumot berilishidan himoya qilish tajribasidan foydalanishi samara berishi mumkin.

Kanadada korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmi Kanada Jinoyat Kodeksining qoidalariga¹⁴, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar va kelishuvlarga, jumladan, BMTning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Konvensiyasiga tayanadi. Kanadada aksariyat G'arb mamlakatlaridagi kabi 1985 yildan buyon davlat xizmatchisining axloq kodeksi amal qiladi. Kanada hukumatining mansabdor shaxslariga kodeksda ruxsat berilgandan boshqa shaxsiy manfaatlarga ega bo'lish tavsiya etilmaydi. Muallifga ko'ra, Kanadadan axloq kodeksini joriy qilish tajribasini olish foydadan xoli bo'lmaydi. Afsuski, davlatimizda bunday kodeks hozirgacha ishlab chiqilmagan.

Dissertatsiyaning "**O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalarining tahlili**" deb nomlangan uchinchi bobida O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida korrupsiya turlari va unga qarshi kurashishning samarali mexanizmlari; korrupsiyaning niqoblangan shakli bo'lgan "sovg'a"ning ilmiy-nazariy talqini; talaba-yoshlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish xulq-atvori va immunitetni shakllantirishni takomillashtirish masalalari o'rganilgan.

Ma'lumki, korrupsiyadan holi jamiyat va davlatni yaratish mamlakat taraqqiyotining mustahkam kafolati bo'ladi. Davlatning korrupsiyaga qarshi yo'naltirilgan barcha islohotlari fuqarolarning huquq va manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta'lim sohasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish orqali mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dissertatsiya muallifining fikriga ko'ra, ta'lim tizimi bir nechta usullar bilan korrupsiyalangan bo'lishi mumkin. Bunga misol qilib, ta'lim berish vakolat-vazifalari, tovar va xizmatlarni yetkazib berish, nomunosib kasbiy xatti-harakatlar, soliqqa tortish va mulkchilik sohasi, maktablar qurish, pedagoglarni tanlash va tayinlash, ularning mansab pillapoyasi bo'ylab ilgariishi (shu jumladan,

¹⁴ Criminal Code of Canada (1985, amended 2019). [Electronic resource]. URL: <https://www.legislationline.org/documents/section/criminal-codes/country/38> (reference date: September 15, 2023).

rag‘batlantirish tizimi), jihozlar va darsliklarni yetkazib berish hamda taqsimlash, mablag‘ ajratish (stipendiyalar, subsidiyalar va boshqalar), imtihonlarni o‘tkazish, attestat hamda diplomlar berish va boshqa sohalarni ko‘rsatish mumkin¹⁵.

Ta‘lim sohasidagi korrupsiya oqibatlarining har xil turlari mavjud. Korrupsiya boshqa davlat sektorlarida bo‘lgani kabi ta‘lim tizimida ham moliyaviy resurslarning talon-taroj qilinishiga olib keladi; o‘qishga kirishdagi g‘ayrioddiy talablar kuchayib ketadi, imtihonlar tizimidagi poraxo‘rliliklar tufayli iste‘dodli yoshlardan noratsional foydalaniladi, yoshlar orasida korrupsiya keng avj olgan holatlarda o‘quvchi va talabalarning bilim olish imkoniyatlari keskin pasayadi.

Amaldagi qonunchilikka rioya etilishini ta‘minlay olmaslik davlat boshqaruv tizimida shaffoflik, nazorat, samarali ishlashga rag‘batning yo‘qligidan dalolat beradi¹⁶. Moliya tizimining ehtimoliy zaif tomonlariga ushbu tizimni nomarkazlashtirish natijasida qayta qurish uchun imkoniyatlarning yo‘qligi va ichki va tashqi nazoratning yetarli emasligini kiritish mumkin.

Muallifning fikricha, muvofiqlashtirish tizimining shaffofligini ta‘minlash, boshqaruv omilini kuchaytirish, kadrlar mas‘uliyatini oshirish hamda qat‘iy nazorat qilinadigan javobgarlikni joriy etish orqali O‘zbekiston ta‘lim tizimini korrupsiya ko‘rinishlaridan xalos etish mumkin. Buning uchun fuqarolar o‘z huquqlarini himoya qilish yo‘llari va usullari to‘g‘risida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lishi, korrupsiyaning barcha ko‘rinishlarini o‘z vaqtida aniqlash, tezkorlik bilan oldini olish va bartaraf etish malakasiga ega bo‘lishlari zarur. Chunki ta‘lim sohasidagi korrupsiya o‘ta xavfli bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotiga jiddiy zarar, o‘qituvchilar va davlat organlariga bo‘lgan ishonchga putur etkazadi.

Ushbu tadqiqot doirasida ta‘lim tizimidagi korrupsiyaning keng tarqalgan turlaridan biri bo‘lgan sovg‘a berish hodisasi ham o‘rganilgan va uning huquqiy jihatdan tartibga solinmaganligi aniqlangan. Dunyoning ko‘pgina davlatlaridan farqli o‘laroq, O‘zbekistonda sovg‘a pul miqdori yoki o‘qituvchilarga beriladigan boshqa sovg‘a turlari bilan cheklanmaydi. Sovg‘aning boshqaruv kategoriyasi ekanligini tushunish lozim, chunki u tashkilot va korporativ madaniyatda munosabatlarni o‘rnatish uchun beriladi. Muallifning ta‘kidlashicha, bu holat har bir ta‘lim muassasasida o‘qituvchilar tomonidan sovg‘alarni olish bo‘yicha ta‘lim muassasasining pozitsiyasini aks ettiradigan pedagog xodimlarining axloq kodeksini ishlab chiqish va qabul qilishni taqoza etadi. Ta‘lim muassasalarida odob-axloq qoidalari amaliyoti xorijda keng tarqalgan va o‘z samarasini allaqachon isbotlab bo‘lgan. Shu bois O‘zbekistonda ham bunday kodeksni qabul qilish davr talabiga aylanmoqda. Unda o‘qituvchilar va talabalar, ularning otanalari, ta‘lim muassasasi ma‘muriyati, hamkasblar va boshqalar o‘rtasidagi munosabatlarning butun ko‘lami nazarda tutilishi, kodeksning qoidalari esa aniq ifodalangan, tushunarli tilda yozilgan bo‘lishi lozim.

Korrupsiya ma‘naviy tanazzulning ifodasi sifatida axloqsizlikni keltirib chiqarishi, jamiyatga halokatli ta‘sir ko‘rsatishi fanda isbotlangan. Ta‘lim,

¹⁵ Любкина Н.А., Лубский Р.А. Коррупция в сфере высшего образования: основные проблемы и способы их разрешения в современном российском обществе // Юрист-правоведь. – 2018. – №3 (86). – С. 45-54.

¹⁶ Batafsil qarang: Акунченко Е.А., Вырва П.А., Дамм И.А. Основы коррупционного просвещения в сфере образования / под ред. И. А. Дамм, Н. В. Щедрина. – Красноярск: АСТ, 2016. – С. 78.

vaziyatdan xabardorlik korrupsiyaga qarshi kurashishning nazariy asosidir¹⁷. Axloqiy qadriyatlar va axloqiy fazilatlar talaba-yoshlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi xulq-atvor va immunitetni shakllantirishning asosi sanaladi.

Yoshlarning xulq-atvori, yurish-turishida salbiy o'zgarishlar ro'y bermoqda, chunki ma'naviy tarbiya va axloqiy farovonlik moddiy ehtiyojga aylangan. Muallifning fikricha, ma'naviyat yaxlit va chuqur tushuncha sifatida o'qituvchi-murabbiy tomonidan o'z xulq-atvorini konstruktiv strategiyasini ixtiyoriy va ongli ravishda amalga oshirishni oldindan belgilash uchun noyob xususiyatga ega. Zamonaviy o'qituvchi-murabbiy, agar u o'z kasbining mazmun-maqsadi moddiy boylik topish yo'li deb o'ylasa, yuqori darajadagi ma'naviyatga ega bo'lmasligi aniq. Huddi shuningdek, ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning axloqiy qadriyatlari ma'naviyatning asosini tashkil qilishi lozim.

Talaba yoshlar korrupsiyaning har qanday ko'rinishlaridan voz kechish va ushbu buzg'unchi hodisada ishtirok etishga qarshi immunitetni shakllantirish ruhida tarbiyalanishi lozim. Bu borada davlat, ta'lim muassasalari, yoshlarning o'zlari, fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalarining hamkorlikda va har tomonlama muvofiqlashtirilgan holda ishlashi talab etiladi. Muallif mazkur tadqiqot ishida O'zbekiston yoshlarini korrupsiyaga qarshi kurashga to'liq jalb etishga, shuningdek, ko'rib chiqilayotgan hodisaga qarshi kurashish doirasida yosh avlod huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladigan aniq chora-tadbirlar ro'yxatini ham taqdim etgan.

Ishning **“O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari tahlili”** deb nomlangan to'rtinchi bobida O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning mohiyati va asosiy prinsiplari; ta'lim sohasiga oid qonunchilikni modernizatsiya qilish korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim omili sifatidagi o'rni; O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashishning normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish; ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi samarali kurashishning istiqbollari tahlil qilingan.

Dissertasiyada so'nggi yillarda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash oldingi davrga nisbatan yuqori samaradorlikka erishgani e'tirof etilgan. Hozirgi kunda milliy qonunchilikni rivojlantirish, asosan, davlat hokimiyati organlarida korrupsiya darajasini pasaytirishga qaratilgan. Muallifning fikricha, jamiyatning korrupsiya xavfiga duchor bo'lgan ayrim sohalarida unga qarshi kurashishga ko'proq e'tibor qaratish zarur. Olib borgan tadqiqotlarimiz shunday sohalardan biri O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi ekanini, uning huquqbuzarlik va jinoyatlardan yetarlicha himoyalalmaganini ko'rsatadi.

Dissertantga ko'ra, davlatning mazkur sohada qonunchilikni takomillashtirishi muhim ahamiyatga ega: korrupsiyaga qarshi tadbirlarni nafaqat barcha davlat ta'lim muassasalari xodimlariga, balki sohaning barcha mansabdor shaxslariga nisbatan ham takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Ishni pedagog-

¹⁷ Qobilov Sh.R. Korrupsiya: sabablari, shart-sharoitlari, oqibatlar va oldini olish yo'llari. Monografiya / – T.: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi “O'qituvchi” NMIU, 2019. –B. 48.

o'qituvchilar, boshqaruvchi kadrlar bilan ham, ta'lim olayotgan yoshlar bilan ham muntazam olib borish pirovard natijada ularda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash ko'nikmalarini hosil qiladi va bu tegishli jinoiy xatti-harakatlarni tezkorlik bilan aniqlashga keng imkoniyatlar yaratadi.

